


**Jizzax viloyatida turizm va dam olish sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari**

Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Jizzax viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar soni 11 tani tashkil qilib, 2020 yilda ular tomonidan 18,5 ming nafar tashrif buyuruvchiga xizmat ko'rsatildi.

Jizzax viloyati bo'yicha 2019 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylarda joylashtirilgan shaxslar soni 38984 nafar bo'lib, 1683 nafar MDH davlaridan tashrif buyurgan bo'lsa, 1675 nafari esa uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurgan.



2020 yilda Jizzax viloyatida mehmonxona va shunga o‘xshash joylarda joylashtirilgan shaxslar, foizda



2020 yilda safar maqsadlari bo‘yicha mehmonxona va shunga o‘xshash joylardagi nomer fondi 690 ta bo‘lib, joylashtirilgan shaxslarning soni 38990 nafarni tashkil etdi. Shaxsiy maqsadlar bilan joylashtirilgan shaxslar soni 7515 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar bilan joylashtirilgan shaxslarning soni 31475 nafarni tashkil etgan.

2020 yilda safar maqsadlari bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylarda joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, foizda

**80,7 %**  
Ish yuzasidan  
va kasbga oid  
maqsadlar



**19,3 %**  
Shaxsiy  
maqsadlar



2020 yilda turish muddati bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylarda joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi



**11 kishi**

29-91 kun tunash

**786 kishi**

8-28 kun tunash

**752 kishi**

4-7 kun tunash

**37439 kishi**

1-3 kun tunash

2020 yilda shaxsiy maqsadlari bo‘yicha mehmonxona va shunga o‘xshash joylarda joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi

2020 yilda mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni 39 tani tashkil qilgan. Ulardan 31 tasi mehmonxonalar bo‘lib, 16,1 foizi bir yulduzli, 6,5 foizi ikki yulduzli, 16,1 foizi uch yulduzli va 61,3 foizi toifaga ega bo‘lmagan mehmonxonalar toifasini tashkil etadi.

Ijtimoiy soha statistikasi bo‘limi

72-221-51-36

72-222-81-36